



## 2020 yil yanvar oyida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 yil yanvar oyida viloyatdagi korxonalar tomonidan 1082,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 56,4% ga, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 2,4 martaga o'sishi hisoblangan.

### Yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



## Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



### *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.



shundan:

ko'mir, lignit, neft va tabiiy gaz qazib olish  
 tog'-kon sanoatining boshqa faoliyatlari

Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi %
0,2	2,8
6,9	97,2



## *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)*

2020 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1009,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,2 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali 17,8 % ni, o'rta-quyi texnologiyali - 10,2 % ni va quyi texnologiyali - 64,6 % ni tashkil etdi.

*shundan:*

	<i>Mrld. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	497,0	45,9
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	182,7	16,9
mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	198,4	18,3
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	23,4	2,2
metallurgiya sanoati	47,9	4,4
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,05
yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	13,9	1,3
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,2	0,2
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	5,5	0,5
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	37,9	3,5

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi.



<i>Mrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
58,4	100

*shundan:*

elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari



*shundan:*


Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash  
Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish

<i>Mrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
5,8	75,3
1,9	24,7

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi (yanvar)




■ Hajmi mlrd. so'm

■ Jamiga nisbatan ulushi % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 6,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 192,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 17,8 %), o'rta-quyi texnologiyali 110,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 10,2 %), qo'yi texnologiyali 699,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 64,6 %) ni tashkil etdi.

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



■ Hajmi mlrd. so'm



■ O'sish sur'ati % da

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste‘mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 682,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019 yil yanvar oyiga nisbatan 8,5 % ga o‘shishini ta‘minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 63,0 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar oyida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi

2020 yil yanvar

2019 yil yanvar



**Oziq-ovqat tovarlari**




**Nooziq-ovqat tovarlari**


2019 yil yanvar oyiga nisbatan iste‘mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,0 % tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yil yanvar oyida ham 65,0 % ni tashkil etganligini kuzatish mumkun.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 5,7 % ni (2019-yil yanvar oyida 4,2 %) tashkil etdi.

**2020 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati**




Sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	2020 yil yanvarda ishlab chiqarilgan
<b>O'simlik yog'i, t</b>	<b>1069,0</b>	<b>1265,0</b>
Yirik shoxli qora mollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari), ming t	8,1	9,7
<b>Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari) ming l</b>	<b>895,0</b>	<b>1051,0</b>
Tamaki (segaret), mln.dona	882,0	815,0
<b>Boshqa guruhlariga kiritilmagan cho'g'lanma lampalar , ming dona .</b>	<b>56,8</b>	<b>-</b>
Yigirilgan ip, t	173,0	38,9
<b>Xo'jalik sovuni, t</b>	<b>423,0</b>	<b>-</b>
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	0,27	2,35
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>	<b>7,5</b>	<b>1,6</b>


Bunga ko'ra ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiyoslaganda Yigirilgan ip – 2,9 m. ga. Yirik shoxli qora mollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)-19,5 % ga. Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)-17,4 % ga Tamaki (segaret)-8,2 % ga o'sishi hisoblandi.



## Samarqand viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



## Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2020 yil yanvar oyida 2019 yil yanvar oyiga nisbatan, %)



2020-yilning yanvar oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 413,8 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 38,2 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar  
umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %**


2019 yil yanvar

2020 yil yanvar



- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

**2020 yil yanvar oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,5 %), Jomboy (10,9 %), Samarqand (8,2 %), Urgut (8,0) va Tayloq (7,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 581,7 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 53,8 % ni tashkil etdi.

**2020 yilning yanvar oyida hududlar bo‘yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.**










Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod, Qo‘shrabot, Urgut, Paxtachi, Ishtixon, Payariq va Oqdaryo tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Samarqand (99,5 %), hamda Tayloq (88,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo‘rg‘on shahri (18,7 %), Narpay (23,1 %) va Jomboy (26,1 %) tumanlarida kuzatildi.

2020-yilning yanvar oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish**  
(yirik korxonalar bo'yicha)  
**Qayta ishlash sanoati**

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2020-yil yanvar</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element– azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar		<i>ming tonna</i>	0,13 12,9 ↓
Aroq		<i>ming l. 100% spirt</i>	22,0 73,3 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari		<i>ming l. 100% spirt</i>	20,5 8,5 M ↑
Uzum vinosi		<i>ming l.</i>	68,5 12,6 M ↑
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)		<i>ming l.</i>	1051,0 117,4 ↑
Yumshoq bug'doy va spelta uni		<i>ming tn.</i>	12,6 93,1 ↓
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni (buxanka), og'irligi 600 g.		<i>tn.</i>	36,0 62,1 ↓

Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)



*tn.* 1069,0 95,7 ↓

Paxta tolasi



*ming tn.* 1,6 21,7 ↓

Paxta chigiti



*ming tn.* 2,5 29,3 ↓

Paxta tiviti (lint)



*tn.* 112,4 16,5 ↓

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi



*mln.kVt/s* 0,8 36,5 ↓

Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)




*ming Gkal.* 7,4 97,4 ↓

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 6040 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1489 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 24,6 %) Samarqand shahriga, 877 tasi (14,5%) Urgut tumaniga, 543 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**


(2020 yil 1 fevral holatiga)



2020 yil yanvar oyida viloyatda 116 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko'pi Urgut (18,1), Samarqand shahri (12,1 foiz), Jomboy va Samarqand (9,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**

(2020 yil 1 fevral holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80